



IJTIMOIIY TARMOQLAR

Xayrullayeva Gulsanam Asliddin qizi

O'zbekiston Jahon tillari universiteti 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy axborot texnologiyalari va ommaviy axborot vositalarining hayotimizdagi o'rni tahlil qilinadi. Mobil qurilmalar va ijtimoiy tarmoqlar insonlarga tezkor axborot olish, masofaviy xizmatlardan foydalanish, onlayn savdo va reklama imkoniyatlarini yaratgani ta'kidlanadi. Shu bilan birga, ularning salbiy oqibatlari – yoshlar ongiga zararli ta'siri, vaqtning samarasiz sarflanishi, kiberxavfsizlik muammolari va inson salomatligiga bo'lgan salbiy ta'sirlari haqida ham fikr yuritiladi. Muallif "Insta manqurtlik" sindromi orqali ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik xavfini yoritib, inson iroda va ongli foydalanish orqali bu muammolardan chiqib ketishi mumkinligini ta'kidlaydi. Maqola yakunida texnologiyalarni to'g'ri va maqsadli ishlatish, shaxsiy javobgarlikni sezish va jamiyatda islohotlarni o'zimizdan boshlash zarurligi xulosa qilinadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoqlar, mobil qurilmalar, "Insta manqurtlik", axborot texnologiyalari, onlayn savdo, kiberxavfsizlik, sog'liq uchun xavflar, yoshlar tarbiyasi, blogerlik, shaxsiy javobgarlik.

Аннотация: В статье анализируется роль современных информационных технологий и средств массовой информации в жизни человека. Отмечается, что мобильные устройства и социальные сети способствуют быстрому получению информации, использованию дистанционных услуг, а также развитию онлайн-торговли и рекламы. Вместе с тем рассматриваются их негативные стороны — разрушительное воздействие на сознание молодежи, неэффективное использование времени, проблемы кибербезопасности и негативное влияние на здоровье человека. Автор, вводя понятие «Инста-манкуртизм», раскрывает проблему зависимости от социальных сетей и подчеркивает, что благодаря силе воли и осознанному использованию технологий человек способен преодолеть данную зависимость. В заключение делается вывод о необходимости целенаправленного и ответственного использования технологий, осознания личной ответственности и начала общественных преобразований с самого себя.

Ключевые слова: социальные сети, мобильные устройства, «Инста-манкуртизм», информационные технологии, онлайн-торговля, кибербезопасность, угрозы для здоровья, воспитание молодежи, блогинг, личная ответственность.

Abstract: This article analyzes the role of modern information technologies and mass media in human life. It highlights that mobile devices and social networks enable people to access information quickly, use remote services, and expand opportunities for online commerce and advertising. At the same time, the paper discusses their negative aspects — harmful effects on youth consciousness, inefficient use of time, cybersecurity challenges, and adverse impacts on human health. By introducing the concept of "Insta-manqurtism,"



the author examines the issue of social media addiction and argues that through willpower and conscious technology use, individuals can overcome this dependency. The study concludes that purposeful and responsible use of technology, awareness of personal accountability, and initiating positive social change from oneself are essential for a balanced digital society.

Keywords: *social networks, mobile devices, “Insta-manqurtism,” information technologies, online commerce, cybersecurity, health risks, youth education, blogging, personal responsibility.*

Hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan ommaviy axborot vositalari, jumladan mobil qurilmalardagi ijtimoiy ilovalar yangiliklarni yorug'lik tezligida yetkazib bermoqda.

Xo'sh, bu qanchalik qulaylik yoki zararli?!

Aslida, uzoq masofalardan bog'lanish va axborot olish uchun yaratilgan bu kabi tizimlar ko'plab sohalarda ham yangi versiyalar ochdi. Har bir sohaning samarali faoliyatiga ijtimoiy tarmoqlardagi reklamalar yoki onlayn platforma orqali yengilik, izchillik, qulay hisoblash imkonini beradi.

Onlayn savdo.

Judayam ko'pchilik tadbirkorlar masofaviy marketing va yaxshi ishlangan reklama orqali o'z biznesini rivojlantirib kelmoqda.

Bu tizim qulay, ovvoragarchiliklarsiz oflayn ko'rinishdan birmuncha arzonroq reklama qilish, savdo ko'lamini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Televideniye, shou-biznes yangiliklaridan kunlik xabardor bo'lish, jonli efirlari orqali taniqli shaxslarga to'g'ridan to'g'ri murojaat qilish, mashhur kishilar hayoti va ijodini uzluksiz kuzatib borish va judayam ko'plab ma'lumotlar olish mumkin.

Respublika va qonunchilik organlari, ta'lim, madaniyat, davlat xizmatlari ham onlayn platformalar orqali fuqarolarga qulay, xavfsiz, masofaviy xizmat ko'rsatishga erishildi.

Shaxsiy ma'lumotlar hisobini yuritish, joydan turib ma'lumot va hujjatlarni saqlash, ro'yxatdan o'tish mutlaqo davlat xizmatlari onlayn tartibi juda ko'p qulayliklar yaratdi.

Endi siz uyingizdan chiqmasdan turib ma'lumot olishingiz, hujjatlar bilan bog'liq ishlarni oson va tez, qulay hal qilishingiz mumkin. Jumladan, ijtimoiy tarmoqlar orqali o'z sahifangizni ochishingiz, onlayn hayotingiz ko'lamini kengaytirish va do'stlar muhitini shakllantirishingiz, bemalol so'z erkinligini ta'minlagan holda blogerlik qilishingiz mumkin.

Bu kabi tizimlar va texnologiyalar odamlar uchun qulaylik va kam harajat, yugur yugurlarsiz, byurokratikadan xolos bo'lib yengilik bilan yashashga katta foyda keltirdi.

Pirovardida, bu sohaning qora tomonlari qanchalik xavfli?!

"Insta manqurtlik" sindromi. Bu tuzalmas qaramlikmi?!

Inson ibtidosidan rivojlanish tomonga intilishi orqali yutuqlarga erishgan va hayotga kurashishga intilgan. Ixtirolar bosqichi kishilar hayotini osonlashtirishga erishgan.

Asl maqsaddan uzoqlashish, bemaqsad ijtimoiy tarmoqlardan noto'g'ri foydalanish, keraksiz va fayk xabarlar, turlicha oqimlar, filtsiz internet, yoshlar ongining



buzilishi,kashfiyotlar tanazzuliga, kishilarning vaqtini va hayotini foydasiz sarflanishiga olib keldi.

Kiber xavfsizlikni mutlaqo to'liq ta'minlashga ojizmiz.Chunki hakerlar hujumlari, kundan kunga o'sib borayotgan texnologiyalar sabab shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ham dolzarb mavzuga aylantirib qo'ydi.

Bugun ko'cha bo'ylab trend olayotgan o'quvchilar,samarasiz "xo'ja ko'rsin"ga vedio olayotgan odamlar aslida internet nima uchun yaratilgan bexabardek go'yo.Oilalar oqibatini, samimiyatini, mehrini, e'tiborini o'g'irlagan telefon,oilalardan tashkil topgan jamiyatni albatta buzib yubora oladi.Nahotki, telefon qaramligidan qutilishni imkoni yo'q bo'lsa?!

Inqirozga yuz tutayotgan madaniyat, zavol ko'rgan tarbiya, e'tiborsiz qolgan dillar endi hechqachon davo topmaydimi?!

Vaholanki, psixologik jihatdan nimagadir bog'lanishdan qutulish uchun iroda mustahkam bo'lishi, qat'iyat bilan kurashish,o'z hayotini anglash eng katta yordam beradigan tayanchdir.

Vaholanki, psixologik jihatdan nimagadir bog'lanishdan qutulish uchun iroda mustahkam bo'lishi, qat'iyat bilan kurashish,o'z hayotini anglash eng katta yordam beradigan tayanchdir.

Tibbiyot tomonlama e'tibor bersak,uzluksiz telefondan foydalanish,yoniga qo'yib yotish, muntazam birga olib yurish yomon oqibatlarga olib kelishi mumkin.Uyqusizlik ,jahldorlik,tez tez bosh og'rig'i, ko'z nurining pasayib ketishi,miya to'qimalarining jiddiy o'zgarishi,psixik karaxtlik,ekrandan ajralayotgan ultrabinafsha nurlari odam organizmini nurlantirishi oqibatida asab to'qimalarining jiddiy shikastlanishiga sabab bo'ladi.

Foydalanish jarayonida bilinmasligi mumkin bo'lgan bu kabi oqibatlar keyinchalik katta xavfga aylanadi.

Kunlik tartib asosida,normalar orqaligina to'g'ri yo'lga qo'yish mumkin.

Samarasiz umrlar.Ularga kim javobgar?!

Rivojlanayotgan mamlakatlar qatori O'zbekiston ham o'z taraqqiyot cho'qqilariga ega.

Nega aynan ba'zi sohalarida kadrlar yetishmaydi.Bizdan nega qayta Xorazmiylar, Beruniylar yetishib chiqmayapti?

Nega biz yoshlarda istiqbolli harakatlar,yong'in kabi favqulodda taraqqiyot kam?

Bizni chalg'itayotgan, asl maqsaddan yiroqlashtirayotgan mobil qurilmalar keyinchalik sizga kelajakda, xolbuki, 10yildan keyin sizga qanday foyda keltiradi? 10yildan keyin siz o'zingizni kim ko'rinishida tasavvur qilasiz?

Siz aslida kimsiz o'zi?

Kimning avlodisiz?

Yurt ravnaqiga shu qadar,o'zingizni kelajagingizga shu qadar befarq bo'lsangiz, oqibat biz qayga ahvolga kelamiz?!





Bugungi kunda siz erishib turgan narsalardan ko'prog'iga, yanada yuksalishga harakat qilishimiz zarur. IT sohasida ham juda ko'plab imkoniyatlar yaratilgan. Texnologiyalar bekorchi, befoyda illatlar bilan emas, sizning porloq istiqbolingiz uchun xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, telefondan to'g'ri va kerakli foydalanish bu har bir shaxs uchun shaxsiy javobgarlik. Jamiyatda ma'lum mashhurlik emas, o'z hayotini o'nglagan, anglagan, hurmatga loyiq holda o'rnini topish muhim.

"Insta manqurtlik" bilan "insta bloggerlik" jamiyatga madaniyatni ulashish, bachkanliklarsiz, o'zlikni va mentalitetni asragan holda vinelar tayyorlashi, bu katta yutuq balki o'zlikni asrab qolishga xizmat bo'lardi, menimcha.

Har qanday islohot o'zingizdan boshlanadi. Siz rahbar jamiyat siz o'zgarsangizgina va islohotlarni o'zgalarga ham tatbiq etish orqaligina bu kabi manqurtlikdan qutilishimiz mumkin.

Islohotlarni o'zimizdan boshlaylik. Biz internet quli emasmiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov, I. A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch*. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
2. To'xtayev, Sh. *Axborot texnologiyalari va jamiyat taraqqiyoti*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 240 b.
3. Rasulov, B. *Ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar ongiga ta'siri*. // *Yoshlar va innovatsiyalar jurnali*. – Toshkent, 2022. – №4. – B. 45–51.
4. Shodmonova, G. *Ommaviy axborot vositalari va axborot madaniyati*. – Toshkent: TDPU nashriyoti, 2021. – 132 b.
5. G'ofurova, N. *Axborot xavfsizligi asoslari*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti, 2020. – 210 b.
6. Hasanov, A. *Ijtimoiy tarmoqlar va yoshlar psixologiyasi*. // *Pedagogik tadqiqotlar jurnali*. – 2023. – №2. – B. 38–44.

